**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2021– yilning yanvar–iyun oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

## Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, mlrd. so‘m




1. Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar — **10 938,6 mlrd. so‘m**

2. O‘rmon xo‘jaligi — **63,1 mlrd. so‘m**

3. Baliqchilik xo‘jaligi — **34,6 mlrd. so‘m**

## Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati, % da




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 – yilning yanvar – iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11 036,3 mlrd. so‘mni yoki 2020 – yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 10 938,6 mldr. so‘mni (100,5 %), o‘rmon xo‘jaligi – 63,1 mlrd. so‘mni (101,2 %), baliqchilik xo‘jaligi – 34,6 mlrd. so‘mni (107,0 %) tashkil qildi.

***Ma’lumot uchun:***

*Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021– yilning yanvar- iyun oylarida tarmoqning ijobiy o‘sish sur’atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2020– yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati qayd etilganligi orqali erishildi.*

- ✓ *Go‘sht (tirik vaznda) — 103,7 %*
- ✓ *Sut — 106,5 %*
- ✓ *Tuxum — 105,6 %*
- ✓ *Kartoshka — 104,8 %*
- ✓ *Sabzavotlar — 103,9 %*
- ✓ *Oziqbop poliz ekinlari — 109,0 %*
- ✓ *Uzum — 124,7 %*
- ✓ *Ovlangan baliq — 124,3 %*



**Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, *(% da)***



2021– yilning yanvar–iyun oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining 99,1 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar (2021– yilning yanvar– iyun oylarida 100,5 %), 0,6 % i – o‘rmon xo‘jaligi (1,2 %), 0,3 % i – baliq xo‘jaligi (7, %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2021– yilning yanvar– iyun oylarida, hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (1 491 mlrd. so‘m), Buxoro (1 348 mlrd. so‘m) va Qorako‘l (1 206 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (6 mlrd. so‘m), Buxoro shahar (130 mlrd. so‘m) va Qorovulbozor tumani (274 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

***Ma'lumot uchun:***

*Jondor tumanining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinni egallashi, mazkur hududning poliz, tuxum, sabzavotlar, meva rezavorlar va uzum kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.*

*Aksincha, go'sht, tuxum hamda meva va rezavorlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Kogon shaharda kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.*

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot-(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, *(% da)***




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Jondor va Buxoro tumanlarining ulushi 13,5 % va 23,2 % ni tashkil etdi hamda hududlar bo'yicha yuqoriligicha qolmoqda, G'ijduvon tumanining 10,9 % ulush bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush esa Kogon shahar (0,1 %), Buxoro shahar (1,2 %) va Qorovulbozor tumanida (2,5 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




Yuqori o‘sish sur’atlari Kogon shaxar (117,6 %), Qorovulbozor (103,7 %), Romitan (101,2 %), Olot (100,8 %), Qorako‘l (100,8 %) va G‘ijduvon (100,7 %) tumanlarida qayd etildi. Peshku tumani (100,1 %), Buxoro tumani (100,0 %) va Jondor tumanida (100,0 %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari



***Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** — hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.*

2021– yilning yanvar– iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 10 882,4 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 4 500,0 mlrd. so‘mni (95,0 %), chorvachilik mahsulotlari – 6 382,4 mlrd. so‘mni (104,3 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)







**41,4 %**

**Dehqonchilik mahsulotlari**

**58,6 %**

**Chorvachilik mahsulotlari**

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)




| Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar | Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar |
|---|---|
| 01 Qorovulbozor | Kogon 01 |
| 02 Jondor | Kogon sh. 02 |
| 03 Buxoro | Olotl 03 |



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



17,0 %



81,5 %



1,5 %

| Fermer xo‘jaliklari | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar |
|---|---|---|

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 17,0 % i – fermer xo‘jaliklariga, 1,5 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



***Ma’lumot uchun:***

*Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining ulushi quyidagicha:*

- ✓ *Go‘sht (tirik vaznda) — 94,1 %*
- ✓ *Sog‘ib olingan sut — 93,8 %*
- ✓ *Kartoshka — 94,4 %*
- ✓ *Sabzavotlar — 88,4 %*

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)




2021– yilning yanvar– iyun oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida (56,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Olot tumanida (91,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shaharda (14,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Olot tumanida (8,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (41,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Vobkent tumanida (0,4 %) kuzatildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi

### Dehqonchilik mahsulotlari




### Chorvachilik mahsulotlari




| Fermer xo‘jaliklari | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar |
|---|---|---|



# Dehqonchilik

2021– yilning yanvar – iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 500,0 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 95,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,4 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming. t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 354,1 ming. t. donli ekinlar (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Jami don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, jami don yetishtirish umumiy hajmidan 84,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish

hajmi, ming tonna

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Jondor tumanii | **12,2 %** | Kogon shahri | **0,01 %** |
| Peshkku tumani | **10,4 %** | Buxoro shahri | **0,2 %** |
| Vobkent tumani | **9,8 %** | Kogon tumani | **6,2 %** |
| Qorako'l tumani | **9,8 %** | Olot tumani | **7,1 %** |



# Sabzavotlar















2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 254,6 ming t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 3,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 88,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish

**hajmi, ming tonna** | **Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**




| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| G‘ijduvon tumani **14,5 %** | Kogon shahri **0,1 %** |
| Buxoro tumani **13,5 %** | Qorovulbozor tumani **2,7 %** |
| Jondor‘l tumani **12,5 %** | Buxoro shahri **2,9 %** |
| Qorako‘l tumani **11,1 %** | Olot tumani **5,3 %** |

# Kartoshka

**Hajmi, ming. t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 151,6 ming. t. kartoshka (2020– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 4,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha kartoshka yetishtirish

| hajmi, ming tonna | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| 0,7 | Buxoro sh. | 0,5% |
| 0,0 | Kogon sh. | 0,0% |
| 12,1 | Olot | 8,0% |
| 25,4 | Buxoro | 16,8% |
| 11,7 | Vobkent | 7,7% |
| 15,3 | G‘ijduvon | 10,1% |
| 11,6 | Kogon | 7,6% |
| 12,8 | Qorako‘l | 8,4% |
| 0,8 | Qorovulbozor | 0,5% |
| 13,2 | Peshku | 8,7% |
| 12,2 | Romitan | 8,1% |
| 24,0 | Jondor | 15,8% |
| 11,8 | Shofirkon | 7,8% |

**Yuqori ulushga ega hududlar**

Buxoro tumani **16,8 %**

Jondor tumani **15,8 %**

G‘ijduvon tumani **10,1 %**

Peshku tumani **8,7 %**

**Past ulushga ega hududlar**

Kogon shahri **0,01 %**

Buxoro shahri **0,5 %**

Qorovulbozor tumani **0,5 %**

Kogon tumani **7,6 %**



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 20,0 ming t. poliz (2020– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 9,0 % ga ko‘p) ekinlari yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 54,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish

hajmi, ming tonna | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Jondor tumani **35,9 %** | Buxoro shahri **0,01 %** |
| Qorovulbozor tumani **19,3 %** | Kogon tumani **1,1 %** |
| Olot tumani **13,1 %** | Romitan tumani **1,4 %** |
| Peshku tumani **7,6 %** | G‘ijduvon tumani **2,1 %** |

# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 107,9 ming t. meva va rezavorlar (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 25,4 % ga kam) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 73,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish

hajmi, ming tonna

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Jondor tumani | **16,9 %** | Buxoro shahri | **0,4 %** |
| Buxoro tumani | **15,3 %** | Qorovulbozor tumani | **0,7 %** |
| Vobkent tumani | **11,7 %** | Kogon tumani | **2,1 %** |
| Peshku tumani | **11,5 %** | Olot tumani | **4,7 %** |



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 5,2 ming t. uzum (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 24,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 64,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha uzum yetishtirish




| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Jondor tumani **36,9 %** | Buxoro shahri **0,7 %** |
| Shofirkon tumani **17,4 %** | Qorovulbozor tumani **0,3 %** |
| Buxoro tumani **16,5 %** | Kogon tumani **1,7 %** |
| Peshku tumani **8,9 %** | Vobkent tumani **2,3 %** |



# Chorvachilik

2021– yilning yanvar – iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 6 382,4 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,3 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2021– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 124,8 ming t. go‘sht (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 3,7 % ga ko‘p), 463,1 ming t. sut (6,5 % ga ko‘p),
207,9 mln. dona tuxum (5,6 % ga ko‘p), 2,3 ming t. jun (4,3 % ga ko‘p),

372,1 ming dona qorako‘l teri (4,7 % ga ko‘p) yetishtirildi va 2 002,2 t. baliq (8,3 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**







2021- yilning yanvar - iyun oylarida go‘sht yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga asosan, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 124,8 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 94,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

2020- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2021- yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 3,0 % va fermer xo‘jaliklarda 15,7 % o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish

hajmi, ming tonna | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi






| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Qorako‘l tumani **12,0 %** | Kogon shahri **0,1 %** |
| Jondor tumani **11,8 %** | Buxoro shahri **1,4 %** |
| Buxoro tumani **11,5 %** | Qorovulbozor tumani **1,9 %** |
| G‘ijduvon tumani **10,7 %** | Shofirkon tumani **8,1 %** |



# Sut













Xo‘jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 434,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- iyun oylari yakunlari bo‘yicha eng kam hajm 0,8 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2020- yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 17,2 % va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 24,4 % o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha sut yetishtirish






| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Buxoro tumani **12,1** % | Kogon shahri **0,0** % |
| G‘ijduvon tumani **11,6** % | Buxoro shahri **0,6** % |
| Qorako‘l tumani **11,5** % | Qorovulbozor tumani **1,0** % |
| Jondor tumani **11,0** % | Kogon tumani **5,4** % |



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









Boshqa toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 131,2 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 63,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- iyun oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 37,7 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 18,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar xo‘jaliklarida kuzatildi.

2020- yilga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 2,2 % va fermer xo‘jaliklarda 46,3 % o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha tuxum yetishtirish

hajmi, mln. dona

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi






| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Jondor tumani **26,1** % | Kogon shahri **0,1** % |
| Kogon tumani **13,4** % | Buxoro shahri **0,5** % |
| G‘ijduvon tumani **10,6** % | Qorovulbozor tumani **1,0** % |
| Qorako‘l tumani **10,3** % | Peshku tumani **4,4** % |



# Baliq













Baliq ovlash ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 1 193 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 58,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2021- yilning yanvar - iyun oylari natijalari bo‘yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 139,2 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 6,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida kuzatildi.

2020- yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 26,3 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 5,8 % va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 0,6 % o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha ovlangan baliqlar

| hajmi, tonna | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| 282 | Buxoro sh. | 14,1% |
| 0 | Kogon sh. | 0,0% |
| 145 | Olot | 7,2% |
| 167 | Buxoro | 8,3% |
| 36 | Vobkent | 1,8% |
| 198 | G‘ijduvon | 9,9% |
| 76 | Kogon | 3,8% |
| 56 | Qorako‘l | 2,8% |
| 111 | Qorovulbozor | 5,5% |
| 145 | Peshku | 7,3% |
| 77 | Romitan | 3,8% |
| 217 | Jondor | 10,8% |
| 492 | Shofirkon | 24,7% |



| Yuqori ulushga ega hududlar | Past ulushga ega hududlar |
|---|---|
| Shofirkon tumani **24,7** % | Vobkent tumani **1,8** % |
| Buxoro shahri **14,1**% | Qorako‘l tumani **2,8** % |
| Jondor tumani **10,8** % | Romitan tumani **3,8** % |
| G‘ijduvon shahri **9,9** % | Kogon tumani **3,8** % |





# Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh

| | 01 | 02 | 03 | 04 | 05 |
|---|---|---|---|---|---|
| | Yirik shoxli qoramollar | shundan, sigirlar | Qo‘y va echkilar | Otlar | Parrandalar |
| Bosh soni | 1 245,2 | 405,8 | 2 216,2 | 6,5 | 5 344,4 |
| O‘sish | 102,6% | 103,2% | 102,6% | 112,9% | 112,9 |



2021– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumyiy sonidan 12,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 80,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumyiy sonidan 31,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 57,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 11,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 19,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 56,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 24,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 245,2 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 31,0 mingtaga (2,6 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



# Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




## Viloyat bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 405,8 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 12,7 mingtaga (3,2 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Hududlar bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




## Viloyat bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 216,2 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 57,2 mingtaga (2,6 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Hududlar bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




## Viloyat bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 6 483 taga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 742 taga (12,9 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 57,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



## Hududlar bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




## Viloyat bo‘yicha otlarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 344,4 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 611,4 mingtaga (12,9 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1 – iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 56,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Hududlar bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




## Viloyat bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi



- 65- 223-44-45
- 65- 223-72-59